

SHE'RIY TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELUVCHI MUAMMOLAR

Quvvatova Mehribon Usan qizi

O'zDTJU, Tarjimonlik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Xodjayeva S.S**

Annontatsiya: Ushbu maqolada she'riy tarjima va tarjima qilish mobaynida yuzaga keluvchi muammolar, tarjimaga qo'l urgan tarjimonlar haqida batafsil axborotlar, misollar va muammolarni atroflicha o'rganib ularga yechimlar beriladi.

Kalit so'zlar: she'riy tarjima, inversiya, qofiya, lisoniy farq, leksik-grammatik o'zgarish, uslub kaliti.

Abstract: This article presents the problems arising in the field of poetry translation and translation, detailed information about successful translators. Examples and problems are studied in detail and solutions are given

Keywords: poetry translation, inversion, linguistic difference, lexical grammatical change, style key.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы, возникающие в области перевода поэзии и перевод, подробная информация об успешных переводчиках. Подробно разбираются примеры и задачи, приводятся решения.

Ключевые слова: поэтический перевод, инверсия, языковое различие, лексический грамматическое изменение, ключ стиля.

Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjima tobora o'sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo'ygan aqliy ijodiy

faoliyatdir. Madaniyat tushunchasi inson faoliyatining uch turiga qaratilgan: biz individual tarzda fikrlaganimiz va harakat qilganimiz uchun shaxsiy; biz guruh bo'lib faoliyat yuritganimiz uchun - kollektiv; jamiyat o'zini aks ettirgani uchun - ifodaviy. Til - ijtimoiy bo'lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo'q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, farjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir. Mavzuning bosh qismini G'. Salomovning quyidagi mulohazasini aytib o'tish bilan boshlamoqchiman: "Tarjima orqali xalqlar bir-birlari bilan muomala qurganlar, olimlar bir-birlari bilan fikrlashganlar, adiblar bir-birlari bilan muloqotda bolganlar. Hamma zamonlarda - xoh adabiy, xoh ilmiy, xoh siyosiy kitoblar tarjimasi bolsin - xalq, u yaratgan yoki yaratayogan madaniyat, fan, adabiyot va san'at bundan faqat naf ko'rgan". Haqiqatan ham shunday. Shu bois Qadimiy Sharqda, Yunonistonda, Eleya Jamiyatida, Rim saltanatida va hatto Arab xalifaligi davrida ham tarjima ishlariga katta e'tibor berilgan. Tarjima jarayoni bir qarashda oddiy jarayondek tuyuladi: shunchaki asl matnni olasan, so'zlarni kerakli tilga o'girasan va tarjima ishi tayyor. Aslida uning zamirida kitobxon uchun bir qarashda anglashi qiyin bo'lgan murakkab jarayon yotadi. Shu bilan birga, bu jarayonning shunday jihatlari borki, tarjimondan ko'proq mahorat, mas'uliyat bilan yondashuvni talab qiladi. Tarjima ustida qayta va qayta ishlashga, so'zning grammatik, stilistik hamda leksik bo'yoqdorligi kabi ko'plab muammolar ni bartaraf etishga harakat qilishga majburlaydi. Shundan ko'rinib turibdiki, biror bir tilda yaratilgan matnni boshqa tilga nuqsonsiz olib o'tishda til bilish ko'nikmalarining o'zi yetarli emas. Tarjimonda faqatgina til bilish kompetensiyasi emas, balki ijodkorlik qobiliyati ham bo'lishi kerak. Shu o'rinda yetuk shoir va tarjimon Erkin Vohidovning so'zlarini keltirish nomaqbul bo'lmaydi: "Ilhomsiz yaratilgan har qanday asar, sevgisiz olingan bo'saga o'xshaydi". Chindan ham muhabbatsiz qilingan xatti-harakatlar qanchalar soxta va yasama bo'lsa, ilhomsiz yaratilgan asar ham shunchalik jozibasizdir. Shu sababli tarjimondan tarjima ishi chiroyli va rang barang bo'lishi uchun juda katta kuch va matonat talab qilinadi. Adabiy asardagi so'z har qanday qo'llanishda bir vaqtning o'zida o'zining barcha semantik va uslubiy imkoniyatlarini

aniq yoki yashirin shakida namoyon qilishi mumkin. She'riy tarjima jarayonida eng ko'p kuzatiladigan muammolarga quyidagilar yaqqol misol bo'la oladi: 1. She'riy tuzilish. She'rdagi sintaktik tuzilish va so'zlar tartibi nasriy asarlardan katta farq qiladi. Ya'ni nasrda asosiy urg'u ma'noni to'liq va aniq yetkazib berishga qaratilsa, she'riyatda avvalo ohang hisobga olinadi. Shu sababdan she'riyatda inversiya(so'z tartibining o'zgarishi) hodisasi ko'p uchraydi. Bir tildagi o'zaro qofiyadosh so'zlar ikkinchi tilda buning mutlaqo aksi bo'lishi mumkin. Mana shunday vaziyatlarda tarjimondan uddaburonlik, puxta egallangan leksikologiya ilmi talab etiladi, chunki bunday holatda vaziyatdan oqilona chiqib ketish muhim hisoblanadi. Ma'noni aniq bera oladigan so'zlar tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo'lsa, so'zma-so'z tarjima usulidan foydalansa bo'ladi. Aks holda bir so'zni butun boshli gap yoki so'z birikmasi bilan ifodalash holatlari kuzatiladi va bunda gaplarning sintaktik tuzilishi butkul o'zgarib ketadi. 2. Adabiy yoki estetik muammolar. She'rdagi estetik jihatlar so'z tartibi va tovushlar bilan bir qatorda kognitiv ya'ni mantiqiy ma'noda ham yetkaziladi. Bu estetik jihatlar mustaqil ma'noga ega emas, lekin ular matndagi har xil ma'no turlari bilan o'zaro bog'liqdir. Demak, tarjimon so'z tanlash, so'z tartibi va tovushlar bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'ysa, asl she'rning go'zalligiga putur yetkazadi va buzadi.. Tarjimon quyidagi vaziyatlarga tayyor bo'lishi kerak: **a) Qay darajada gapning ko'p ma'noliligini anglab olgani b) Tarjima jarayonida qay holatni tanlab tarjima qilganligi c) Qay darajada matn tarkibidagi gaplarni tarjima tilida berishi d) Qay darajada tinglovchi matnni idrok qilishga tayyor kabi.**

Shu o'rinda she'riy tarjimaning badiiy tarjimadan farqli hamda murakkablik jihatlariga alohida to'xtalib o'tamiz. She'riy tarjimada tarjima qilinayotgan matn mazmunini saqlabgina qolmasdan uning ohangdorligiga ham katta ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Bu holat esa o'z o'rnida tarjimondan ulkan mahorat va shoirlikdan birmuncha xabardor bo'lishini talab etadi. Negaki, ba'zi so'z va so'z birikmlarini asl holicha tarjima qilib bo'lmaydi. Bunday holatda misralardagi o'zaro qofiyadorlikni saqlab qolish mushkul bo'lib qoladi. Yoki aksincha, qofiya saqlanib qoldsa-da, uning ruhiyatini tarjima tiliga to'laqonli ko'chirib o'tkazish masalasi tug'iladi. Bu she'riy

tarjimaning asl murakkabligi desak xato bo'lmaydi. Bunga misol tariqasida quyidagi misralarni keltirish mumkin.

“I wandered alone like cloud

That floats over high valleys and hills,

When suddenly I saw a crowd

A host of golden daffodils”

“Men bulutdek yolg'iz kezardim

U baland vodiylar va tepaliklarda suzib yurardi,

Shu ondayoq ko'rgan edim olomon

Oltindan iborat to'plam-Za'faron”¹

Tarjimada ko'rinib turibdiki, tarjimon sh'erni so'zma-so'z emas balki qofiya va ohangdorlikni saqlab qolish maqsadida qayta yaratish san'atiga qo'l urilgan. Ammo aslyatda (a,b,a,b) ko'rinishidagi qofiyadorlik tarjimada ham (a,b,a,b) ko'rinishida saqlab qolingani. Ayni damda jarayonda muammo tug'dirgan masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Misol tariqasida **When suddenly I saw a crowd** misrasini keltirishimiz mumkin. Ushbu misrani so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, **Qachonki birdaniga olomonni ko'rganimda** ma'nosini keltirib chiqarganini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, misralardagi o'zaro turoqlanishi, ya'ni bo'g'inlarning misralarda bir xil takrorlanib kelishi, qolaversa vazni yo'qoladi. Tarjimada keltirilgan (a,b,a,b) ko'rinishidagi o'zaro qofiyadorlik ham buziladi. Shu sababli ham **“suddenly”** so'zi **“birdaniga”** emas, balki ushbu so'zning sinonimi hisoblanadigan **“shu ondayoq”** birikmasi orqali qayta yaratilgan. Bu holatda qayta yaratishning asosiy maqsadi misralarning o'zaro ritmini (she'riy asarda misralarning

¹ William Wordsworth

bir xil o'lchovli, bir xil vaznli bo'lib kelishidir), vaznini qolaversa, eng asosiysi misralar qofiyalanishini saqlab qolish nazarda tutilgan. Bunday tarjimaga erishish uchun quyidagi amallarni bajarish maqbul:

a) dastlab she'rni diqqat bilan o'qib chiqish, so'ngra she'r mazmunini ingliz tilida bilganimizcha so'zlash (lug'at yordamisiz);

b) to'rtlikni o'girish uchun misralardan birini tanlab olish;

c) tanlab olingan misrani she'riy yo'l bilan emas, balki oddiy so'zlashuv uslubida inglizchada so'zlab ko'rish (lug'at yordamida);

d) so'zlashuv uslubidagi gapni shoshilmasdan adabiy nutq normasiga solish;

e) adabiy nutq doirasidagi matnni she'riy matnga aylantirish

Har qanday badiiy tarjima uch bosqichli tahrirdan o'tishi kerak, shularni e'tiborga olib, tarjimonlar o'z ishlarini mazkur bosqichlarda zinama-zina bosib o'tgan holda tahlil qiladilar. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat: badiiy (obrazlilik qay darajada saqlanganligini aniqlash), ilmiy (lingvistik nuqtai nazardan baholash), nashriy (matnning ijtimoiy ahamiyatini belgilab olish) kabi tahrirlarida tekshirishlari lozim topiladi. Zero, bu uchala bosqich birgalikda talab doirasidagi tarjimani yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra, tarjimonlar quyidagi shartlar asosida amalga oshirgan tarjimalarini tahlil qilishga kirishadilar: 1. Tarjimada asl nusxaning birorta so'zi tushib qolmadimi? Asliyatda mavjud bo'lmagan so'z tarjimada paydo bo'lib qolmadimi? Asliyat bilan tarjimaning farq qiluvchi nuqtasi bormi? 2. Tarjimada so'zlar takrori, gap g'alizligi semantik nomushtaraklik kabilar uchramadimi? Ularni bartaraf qilsa bo'ladimi? Asliyatga yaqinlik qay darajada deb o'ylaysiz? Tarjimada yasamalik, zo'rma-zo'rakilik kabi holatlar uchramadimi? Tarjimonlar ushbu savollarga javob qaytarish barobarida o'zlari amalga oshirgan tarjimalariga yo'l-yo'lakay baho berib ketadilar. Qo'llangan har bir so'zning tarjimadagi badiiy va lisoniy funksiyasi ustida bosh qotiradilar.

Shu bilan birga she'riy asarning badiiy obrazliligi balansini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Asarning badiiy obrazlilik darajasi qanchalar yuqori bo'lsa, bu she'rning milliy madaniyatga bog'liqlik darajasi shunchalar yuqori. Bir madaniy muhitdagi she'riy matnning tarjimasi turli yo'llar bilan amalga oshirilib, bu tarjimonning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq. Eng oddiy maqsad asarning syujetini qayta qurishdir. Bunday tarjima asarning badiiy mohiyatiga deyarli ta'sir qilmaydi, biroq xuddi shu eng past miqyosda madaniyatlararo farq paydo bo'lib, asl nusxani o'qiyotgan she'riyat oshnolarining asarning syujetli hodisalar asosini tushunishga xalaqit beradi. Ustoz Asqad Muxtor aytganidek, "Tarjimon - chizmakash emas, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, metonimik transformatsiya usullari, implitsit ma'nolarini, eksplitsit bayon qilish usullari orqali muallif fikrini o'quvchiga yetkazib berishga harakat qiladi. Ammo to'rt satr she'rdagi ohang va lirik kechinmalarni o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish yugorida aytib o'tganimizdek, shoirona ilhom va mahorat talab qiladi." Haqiqatdan ham she'riy tarjima o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimani san'at darajasiga ko'tarish uchun avvalo adabiyotni, she'riyatni ixlos, muhabbat, fidoyilik bilan bilish va sevish kerak. She'riy tarjimada esa faqatgina til bilish ko'nikmalariga tayanibgina qolmasdan balki, ilhom, qolaversa, tug'ma iste'dod bo'lishi ham muhim unsur ekanligini chuqur anglab yetmog'imiz zarur. Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjima tobora o'sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo'ygan aqliy ijodiy faoliyatdir. Madaniyat tushunchasi inson faoliyatining uch turiga qaratilgan: biz individual tarzda fikrlaganimiz va harakat qilganimiz uchun shaxsiy; biz guruh bo'lib faoliyat yuritganimiz uchun - kollektiv; jamiyat o'zini aks ettirgani uchun - ifodaviy. Til - ijtimoiy bo'lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo'q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. *Tarjima nazariyasi*. Darslik, "Tafakkur bo'stoni" - Toshkent, 2012. 28-bet
2. Xasanova Xilola *She'riy tarjimadagi muammolar*. Maqola – Toshkent, 2024. 259-bet
3. Raximov G'. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Darslik-majmua, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" - Toshkent, 2016 66-bet
4. O'rolova M. *She'riy tarjima muammolari*. Maqola, "International scientific and practical conference" - Toshkent, 2024
5. Zayniyev B. *She'riy tarjimada so'z qo'llash mahorati*, Maqola "Academic research in educational sciences" – Samarqand, 2022